

ALISHER NAVOIYNING “SITTAI ZARURIYA” QASIDALARIDAGI FALSAFIY VA TASAVVUFİY JIHATLAR

Mahliyo IBROIMOVA*
Rustam SHOKIROV***

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot Alisher Navoiyning “*Sittai zaruriya*” qasidalarini tarkibidagi tasavvufiy, falsafiy va ilmiy gʻoyalarni oʻrganishga qaratilgan. Ilmiy manbalarda bu qasidalar poetik jihatdan tahlil qilingan boʻlsa-da, ularning struktural birlik sifatida oʻrganilishi, islom falsafasi va tasavvufiy tafakkur bilan bogʻliqligi hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Tadqiqotda sifat tahlili usuli qoʻllanilib, “*Sittai zaruriya*” qasidalarining matnshunoslik va intertekstual tahlili amalga oshiriladi. Natijalar shuni koʻrsatadiki, bu qasidalar ruhiy kamolot va ilohiy haqiqatni anglashga qaratilgan mustahkam falsafiy asosga ega boʻlib, ular Navoiyning ilohiy va ilmiy tafakkurining uygʻunligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot Navoiyning poetik merosini tasavvufiy va falsafiy kontekstda qayta baholashga, shuningdek, uning adabiy yondashuvini islom intellektual anʼanalariga bogʻlab oʻrganishga hissa qoʻshadi. Kelajakda ushbu qasidalar tanqidiy matnshunoslik, lingvistik va semiotik jihatdan chuqur tahlil qilinishi lozim.

Kalit Soʻzlar: *Sittai Zaruriya, Alisher Navoiy, Tasavvufiy Sheʼriyat, Islom Falsafasi, Intertekstual Tahlil.*

Philosophical and Mystical Dimensions of Alisher Navoi's Sittai Zaruriya Qasidas

Abstract: This study examines the Sittai Zaruriya qasidas of Alisher Navoi, focusing on their integration of Sufi, philosophical, and scientific concepts. While previous research has analyzed these qasidas from a poetic perspective, their structural coherence and connection to Islamic philosophy and Sufi thought remain insufficiently explored. This study employs a qualitative analytical approach, utilizing textual and intertextual analysis to investigate the underlying metaphysical framework of the qasidas. The findings reveal that these compositions serve as a structured philosophical system aimed at spiritual enlightenment and divine understanding, reflecting Navoi's synthesis of the theological, literary, and scientific traditions. The results contribute to a reassessment of Navoi's poetic legacy within the broader context of Islamic intellectual history. The study suggests further critical textual, linguistic, and semiotic analyses to deepen our understanding of Navoi's mystical and literary contributions.

Keywords: *Sittai Zaruriya, Alisher Navoi, Sufi Poetry, Islamic Philosophy, Intertextual Analysis.*

Kirish

Navoiy ijodi- hikmat va tamsillar, har zamon, har davr uchun ham saboq boʻladigan oʻlmas gʻoyalar, fikr-qarashlar ummoni. Shoirning ehtirosli yoniq kalomi hamon qalbimizga nur sohib, yuksakliklarga chorlaydi., insoniylik mulkiga yetaklaydi. Navoiy nafaqat turkiy tilda, balki forsiy tilda ham nodir asarlar yaratdi. Uning “Foniy” taxallusi bilan yaratgan qasida, gʻazal, ruboiy va marsiyalari nafaqat badiiy soʻz ustalari, shoir-u fozillar, shu bilan birga tojikzabon xalq orasida ham shuhrat qozondi. Hazrat Navoiy forsiy sheʼrlarini turkiy asarlari bilan baravar qadrlab, “Devoni Foniy”da faxriya yoʻsinda quyidagi qitʼani keltirganlar:

*Maʼnii shirinu ranginam ba turki behad ast,
Forsiy ham laʼlu durhoi samin gar bingari.
Goʻyo dar rasta bozori suhan bikeshodaam:
Yak taraf doʻkoni qannodiyu yak soʻzargari.
Z-in doʻkonho har gado kolo kujo boshad xarid,
Z-on ki boshad agʻniyo in naqdhoro mushtariy.*

Turkiyda shirin va rang-barang maʼnolarim, asarlarim behaddir. Agar boqsam, forsiyda ham laʼlu durlarim koʻp. Goʻyo rastada soʻz bozorini ochibman.: bir tomondan qandolat doʻkoni, ikkinchi tarafda esa zargarlik doʻkonlari. Bu doʻkonlardan gadolar biror narsa sotib olishi qiyin, chunki mening naqdlarim- asarlarim xaridori maʼnaviy boy kishilardir (Komilov, 2005: 194).

Navoiy fors tilida oltita ana shunday talablarga javob beruvchi, soʻz durlaridan tizilgan qasidani yozgan. Bu qasidalarining har biriga shoir quyidagicha nom qoʻygan: “Ruhul quds” (Muqaddas ruh), “Aynul hayot” (Hayot chashmasi), “Tuhfatul afkor” (Fikrlar tuhfasini), “Qutul

* Tayanch Doktorant, Buxoro Davlat Universiteti, e-mail: mahliyoibroimova9@gmail.com

*** Dotsent, Turon Zarmed Universiteti, e-mail: rustamshokirov252@gmail.com

qulub” (Qalblar quvvati), “Minhojun najot” (Najot yo‘l), “Nasimul xuld” (Jannat shabadasi). Bu olti qasidani jamlab, hammasini “Sittai zaruriya” (Olti zaruriy qasida) deb nomlaydi.

Hajmiga ko‘ra qasidalar turlicha: “Ruhul quds” 132 bayt, “Aynul hayot” 106 bayt, “Tuhfatul afkor” 99 bayt, “Qutul qulb” 120 bayt, “Minhojun najot” 138 bayt, “Nasimul xuld” esa 129 baytdan iborat bo‘lib, jami 724 baytdir (Ibroimova, 2024: 408).

Bu olti qasidadan tashqari Foniyy “Fusuli arbaa” (To‘rt fasl) nomi bilan yana to‘rtta forsiy qasida yozib, ularda yil fasllarining har biriga xos xususiyat va buning inson ruhiyatiga ta‘sirini tasvirlagan. “Fusuli arbaa” qasidaları va “Nasimul xuld” qasidasi Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan, “Tuhfatul afkor” esa hazrati Nuran-Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan (Komilov, 2005: 195).

Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidaları uning adabiy va falsafiy merosining muhim, ammo yetarlicha o‘rganilmagan jihatlaridan biridir. Temuriylar davrining eng nufuzli mutafakkirlaridan biri sifatida Navoiy o‘z asarlarida islomiy metafizika, tasavvufiy g‘oyalar va o‘rta asr ilmiy tafakkurini mahorat bilan uyg‘unlashtirgan. Xususan, fors tilida yozilgan “Sittai zaruriya” qasidaları olti zarur unsur (sittai zaruriya) konsepsiyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu tushuncha islom kosmologiyasi va Sharq tabobatining asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu qasidalar nafaqat Navoiyning poetik iste‘dodini namoyon etadi, balki uning ilohiy va falsafiy tafakkurini ham chuqur aks ettiradi. Navoiy tafakkurining tasavvufiy qarashlar bilan bog‘liqligini aniqlash islom intellektual tarixini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Alisher Navoiy o‘zining forsiy qasidalaridan alohida to‘plamlar tuzgan bo‘lib, ularni Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sojaviy va boshqa qasidanavislar ta‘sirida yaratgan. U davrlarda shoirning she‘riy mahorati ko‘p vaqt qasida yozish bilan belgilanganini hisobga olsak, uning qasidanavislik salohiyati ham yuqori ekanligini bimalol ayta olamiz. Umuman, Alisher Navoiy o‘zining forsiy tildagi asarlari bilan zamondoshlarining, birinchi navbatda, Jomiyning yuqori tahsiniga sazovor bo‘lgan. (Sobirov, 2024: 5).

Shunga qaramay, “Sittai zaruriya” qasidaları hali ham ilmiy jihatdan to‘liq tadqiq etilmagan. Sulaymonov va Muhammadiy kabi tadqiqotchilar tomonidan ayrim qo‘lyozmalarining matni va tarixiy jihatları o‘rganilgan bo‘lsa-da, bu qasidalarining falsafiy, intertekstual va kompozitsion jihatları bo‘yicha to‘liq tadqiqotlar yetishmaydi. Aksariyat ilmiy izlanishlar qasidaları individual ravishda tahlil qilib, ularning yaxlit tizim sifatida o‘rganilishini e‘tibordan chetda qoldirgan. Ayniqsa, bu qasidalar tasavvufiy va falsafiy an‘analar bilan qanday bog‘langanligi, Ibn Sino va Jaloliddin Rumi singari mutafakkirlarning g‘oyalari bilan qanday uyg‘unlashgani chuqur o‘rganilmagan. Ushbu ilmiy bo‘shliq “Sittai zaruriya”ni keng qamrovli yondashuv asosida tadqiq qilish zaruratini ko‘rsatadi.

Men, Ibroimova Mahliyo shu yil Buxoro davlat universitetining tayanch doktoranti sifatida o‘qishga qabul qilindim. Ilmiy rahbarim Bekova Nazora Jo‘rayevna boshchiliklarida Alisher Navoiyning forsiy qasidalarini o‘rganyapman. Dissertatsiya mavzusi: Alisher Navoiy forsiy qasidaları poetikasi deb nomlandi. Mazkur tadqiqot “Sittai zaruriya” va “Fusuli arba” qasidalarini sifat jihatdan tahlil qilish metodiga asoslanadi. Qasidalarining matni sinchkovlik bilan o‘rganilib, ularning tarixiy va intertekstual bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy tanqid, matnshunoslik, tarixiy kontekst va tasavvuf falsafasi kabi metodlar qo‘llanadi. Islom falsafasi, adabiyotshunoslik va tibbiyot tarixiga oid ilmiy qarashlar bir-biriga bog‘liq holda yondashilib, Sittai Zaruriya va Fusuli arbaning ilmiy asoslari va poetik ifodasi chuqur tadqiq etiladi. Ushbu tadqiqot Navoiyning she‘riyati va tafakkurini kengroq intellektual kontekstda tushunish imkonini beradi. Bugungi kunda mazkur tadqiqot ustida ish boryapmiz. O‘ylaymanki, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erishamiz.

Ushbu tadqiqot natijalari “Sittai zaruriya”ning yaxlit falsafiy va poetik tizim sifatida shakllanganligini ko‘rsatishi kutilmoqda. Qasidalar tarkibidagi numerologik tizim, ilohiy mohiyat va tasavvufiy ramzlar chuqurroq ochib beriladi. Shuningdek, Navoiyning poetik uslubi va uning o‘rta asr islom falsafasi bilan bog‘liqligi ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ushbu

tadqiqot Sittai Zaruriyani tasavvufiy va falsafiy merosning muhim qismi sifatida qayta baholashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari adabiyotshunoslik, islomshunoslik va forsiy she'riyat tadqiqotlariga muhim hissa qo'shishi kutilmoqda. Bu natijalar Navoiyning falsafiy qarashlarini tushunishda yangi ilmiy istiqbollarni ochadi va uning qasidalarini jahon adabiy-madaniy merosining ajralmas qismi sifatida tan olishga yordam beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu qasidalarining boshqa forsiy va arab tasavvufiy she'riyati bilan bog'liqligini chuqurroq o'rganishga, qo'lyozmalar asosida tanqidiy matnlarni ishlab chiqishga va lingvistik hamda semiotik jihatdan chuqur tahlil qilishga qaratilishi lozim.

1. Adabiyotlar Tahlili

Alisher Navoiy — o'zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakili, Temuriylar davrining buyuk mutafakkiri sifatida o'z asarlarida diniy-falsafiy, ma'naviy-irfoniy va ilmiy-ontologik qarashlarni poetik shaklda ifoda etgan ijodkordir. U fors va turkiy tillarda yaratgan asarlari orqali musulmon Sharqining intellektual merosini boyitgan. Ayniqsa, uning forsiy tilida yozilgan "Sittai zaruriya" qasidalarini o'zining murakkab struktura, ilohiy mazmun va tasavvufiy g'oyalari bilan ajralib turadi. Bu qasidalarda bayon etilgan "olti zaruriy unsur" konsepsiyasi islom kosmologiyasi, Sharq tabobati va tasavvufiy tafakkur bilan uzviy bog'liqdir.

Shunga qaramay, ushbu qasidalar hozirgacha asosan umumiy poetik va falsafiy nuqtayi nazardan baholangan bo'lib, ulardagi konkret matniy misollar, badiiy obrazlar va intertekstual aloqalar yetarlicha yoritilmagan. Masalan, "Ruh ul-Quds" qasidasidagi:

*Ravshan ul arvoh ulur har harfi ul kalomdin,
Anga yo'qdur hech fazl ishqidin afzaldir oq.*

singari baytlar sof tasavvufiy mohiyatga ega bo'lib, ruhiy kamolot, ilohiy ishq va vahdatul vujud kabi konsepsiyalarni yuksak poetik ifoda bilan aks ettiradi. Shuningdek, "Ayn ul-Hayot" qasidasida mavjud bo'lgan hayot suvi timsoli, islomiy falsafada mavjud bo'lgan "ilm-hayot-donish" bog'liqligi bilan uyg'unlashgan.

Mavjud tadqiqotlarda bu qasidalar ko'proq mavhum tasniflarda tahlil etilgan bo'lib, matnshunoslik asosida tahlil qilish, misollar bilan dalillash, hamda Navoiyning boshqa asarlari bilan (masalan, *Mahbub ul-Qulub* yoki *Nasoyim ul-Muhabbat*) ideologik va stilistik bog'liqliklarini ochib berish yetishmaydi.

Shuningdek, maqolalarda "Sittai zaruriya"dagi numerologik tizim, ya'ni olti unurning son va ramzlar orqali tasvirlanishi, ularning islom falsafasidagi o'rni haqida chuqur izohlar keltirilmagan. Aynan shunday jihatlar Navoiy ijodidagi ilmiy-falsafiy sintezni to'liq tushunishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – "Sittai zaruriya" qasidalarini nafaqat poetik yoki umumiy falsafiy mazmunda, balki an'anaviy matnshunoslik, lingvistik tahlil, semiotik yondashuvlar va tasavvufiy tafsirlar asosida chuqurroq o'rganishdan iborat. Navoiyning har bir qasidasida qanday badiiy vositalar ishlatilgani, qanday metaforalar va timsollar orqali ilohiy haqiqatlar tasvirlanganiga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa, ushbu asarlarning boshqa forsiy va arab tasavvufiy she'riyati bilan qiyosiy tahlili olib boriladi.

Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" qasidalarini bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar asosan uning ilohiy-irfoniy merosi, adabiy mahorati va falsafiy qarashlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu qasidalarining har biri tasavvufiy, falsafiy va ilmiy tushunchalar bilan boyitilgan bo'lib, ularning badiiy-estetik hamda ma'naviy-mistik mazmuni hali to'liq tadqiq etilmagan. Tarixiy nuqtayi nazardan, Sittai Zaruriya qasidalariga bo'lgan qiziqish XX asrning o'rtalaridan boshlab jonlana boshlagan. H. Sulaymonning 1968-yilda Parij va Istanbul kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalar asosida Sittai Zaruriyani nashr ettirgani bu yo'nalishdagi muhim qadam bo'ldi. Keyinchalik Ali Muhammadiy

tomonidan 1993-yilda Devoni Foniylar tarkibida chop etilishi Navoiyning forsiy adabiyotga qo'shgan hissasini chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratdi.

Navoiyning qasidalarida tasavvufiy g'oyalar asosiy o'rinni egallaydi va ular vahdatul vujud ta'limoti bilan bog'liq tarzda talqin etiladi. R.Vohidov va N.Bekova kabi olimlar ushbu qasidalarni tahlil qilish asnosida Navoiyning adabiy uslubi, obrazlilik tizimi va ilohiy ma'naviyatni ifodalash usullariga alohida e'tibor qaratishgan. Ayniqsa, Ruh ul-Quds va Qut ul-Qulub qasidalarida Qur'on va hadis hikmatlari, tasavvufiy ramzlar hamda islom falsafasining chuqur qatlamlari aks etgani ilmiy adabiyotlarda keng muhokama qilingan. Bu qasidalarda bayon etilgan ruhiy kamolot va inson ma'naviy takomilining oltita asosiy tamoyili Ibn Sino va Yusufiy Heraviy kabi Sharq tabobati mutaxassislari tomonidan ilgari surilgan sittai zaruriya konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlangan.

Qasidalarda O'rta asrlar Musulmon sharqi erishgan falsafiy, irfoniy, ilohiy tushunchalar, Qur'on hikmati va hadislar mazmuni chuqur aks etgan. Navoiy buning ustiga, fors tilidagi juda qadimiy nodir so'zlar, turli ilmlarga oid islohlarni qo'llaydi. O'quvchi bu islohlarning o'zinigina emas, shu isloklar bilan tuzilgan so'z o'yinlari, badiiy san'atlarni ham bemalol ilg'ab olsa, shoir mahoratining naqadar baland ekaniga guvoh bo'ladi (Jorayevna va boshqalar, 2025: 237).

Navoiy har bir qasidasida avvalo insonni hushyorlikka chaqiradi. Uni asl dushmanlari-nafsi ammora, Shaytoni la'in va yolg'on dunyo muhabbatidan ogohlantiradi. Ibodatlarini sidq ila bajarish, gunohlardan saqlanish va axloqni go'zallashtirish bilan Haq taolaga qurbat hosil qilishni, bir piri komil rahnamoligida sayru suluk yo'llarini ixlos va sabot bilan bosib o'tib, diyonatli va mahbub inson bo'lishni uqtiradi (Sayfullah, 2008: 3).

Mustaqillikdan so'nggi davrda Navoiyning ilohiy-irfoniy merosini qayta tadqiq etish imkoniyati yanada kengaydi. B.Valixojayev va N.Mallayev kabi olimlar Navoiyning forsiy adabiyotdagi o'rni, uning Sittai Zaruriya qasidalarida ilgari surilgan falsafiy g'oyalarining manba va kontekstini o'rganishga hissa qo'shdilar. Bu tadqiqotlarda Sittai Zaruriya faqat tasavvufiy she'riyat namunasi emas, balki islom falsafasining uzviy bir qismi sifatida baholangan. Jumladan, A.Mirzoyev va Y.Is'hoqov o'z tadqiqotlarida ushbu qasidalar tarkibidagi irfoniy tushunchalarni Sharq falsafasi bilan bog'liq holda talqin qilishgan. Ular Navoiyning qasidalarida aks etgan metafizik tafakkurning tasavvufiy manbalar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsatib berganlar.

Shu bilan birga, adabiyotlarda hali to'liq ochib berilmagan ilmiy bo'shliqlar ham mavjud. Masalan, "Sittai zaruriya" qasidalarining boshqa forsiy va arab she'riyati namunalari bilan qiyosiy tahlili yetarlicha amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, qasidalar tarkibidagi numerologik tizim va uning islom falsafasi bilan bog'liqligi bo'yicha chuqur tadqiqotlar yetishmaydi. Kelajakda ushbu qasidalarni yanada mukammal tadqiq qilish uchun qo'lyozma manbalariga asoslangan filologik izlanishlar, adabiy hermenevtika va semiotik tahlil usullaridan foydalanish zarur. Shuningdek, tasavvufiy-mistik ramzlarning poetik kontekstdagi roli, ularning Navoiyning adabiy-estetik qarashlari bilan aloqadorligi bo'yicha kengroq izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Shu jihatdan, Sittai Zaruriya qasidalarining islomiy intellektual tarixdagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, ularning jahon falsafasi va adabiyoti bilan bog'liqligini aniqlash istiqbolli tadqiqot yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

2. Metodologiya

Ushbu tadqiqot Alisher Navoiyning "Sittai zaruriya" qasidalarini matn va tarixiy izohlarga asoslangan sifat jihatdan tahlil qiluvchi analitik metodologiya yordamida o'rganadi. Ushbu qasidalarning estetik, tematik, struktural va falsafiy jihatlari Navoiyning o'z poetik asarlari hamda tegishli klassik risolalar asosida tahlil qilinadi. Matnshunoslik tahlili qiyosiy uslubda olib borilib, Navoiyning ma'naviy qarashlari bilan forsiy va islomiy adabiy an'analar

o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi. Tadqiqot, shuningdek, tarixiy kontekstualizatsiya usulidan foydalanib, O'rta Osiyo o'rta asr adabiyoti, ayniqsa, Navoiyning yozuvlarida tasavvufiy va falsafiy g'oyalarning aks etgan jihatlarini ilmiy manbalar asosida o'rganadi. Sittai Zaruriya qasidalarining talqini qanday rivojlanganini tushunish maqsadida, arxiv materiallari, jumladan, Sittai Zaruriya qo'lyozmalari va oldingi nashrlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, Navoiyning falsafiy nutqini shakllantirishda metafora, ramzlar va ritorik vositalardan foydalanishini baholash uchun lingvistik va uslubiy tahlil ham qo'llaniladi. Tadqiqot ushbu qasidalar yaratilgan intellektual muhitni qayta tiklashga intilib, adabiy tanqid, tarixiy izlanishlar va falsafiy tahlil natijalarini uyg'unlashtiradi. Shuningdek, inson mavjudligi va uning ilohiy bog'liqligi kontekstida olti zaruriy unsur (Sittai zaruriya) bilan bog'liq tibbiy va ilohiy risolalarga murojaat qilinib, Navoiyning tafakkuridagi multidisiplinar yondashuv alohida ta'kidlanadi. Ushbu turdagi tadqiqot uchun ishlab chiqilgan metodologik asos Navoiyning ma'naviyat va tafakkurga qo'shgan hissasini to'liq tushunish hamda uni tarix va adabiyotning umumiy kontekstida baholash imkonini beradi.

3. Natija va Muhokama

Alisher Navoiyning Sittai Zaruriya qasidalarini shunchaki poetik ifoda vositasi emas, balki ular tasavvuf falsafasi, islomiy tafakkur va o'rta asr tibbiy ilmi bilan chuqur bog'langan asarlardir. Matnshunoslik tahlili shuni ko'rsatadiki, Navoiy o'z poetik kompozitsiyalarida metafizik va epistemologik tushunchalarni ifodalash uchun olti tarkibli tizimli yondashuvdan foydalangan bo'lib, bu usul tasavvufning asosiy tamoyillariga mos keladi. Xususan, Ruh ul-Quds va Aynul-Hayot kabi asarlarida ilohiy donishmandlik, inson aqli va koinot tartibining o'zaro bog'liqligi, shuningdek, ruhiy poklanish va yuksalish g'oyalari asosiy mavzulardan biri sifatida takror-takror aks ettirilgan. Navoiyning borliq haqidagi ko'p qirrali yondashuvi uning she'riyatida ilohiyot, falsafa va tibbiyot bilimlarini uyg'un holda qo'llaganligini namoyon etadi. Tadqiqot shuningdek, Navoiyning Ibn Sino tibbiy qarashlari va Jaloliddin Rumiy hamda Abdurahmon Jomiy singari forsiy shoirlarning tasavvufiy qarashlariga yuqori darajada tayanib ish ko'rganligini ochib beradi. Bu esa Navoiyni nafaqat badiiy mahorat egasi, balki ilmiy va doktrinal tushunchalarni chuqur tahlil qiluvchi olim-shoir sifatida yana bir bor tasdiqlaydi.

Sittai Zaruriya qasidalariga bo'lgan qiziqish tarixiy nuqtayi nazardan murakkab bosqichlarni bosib o'tgan. Ayniqsa, Sovet davrida diniy va tasavvufiy adabiyotlarning chetga surilishi natijasida ushbu qasidalar uzoq vaqt ilmiy muhokama obyekti bo'lolmagan. Mustaqillikdan keyingi davrda Navoiyning tasavvufiy ijodiga qiziqish ortgan bo'lsa-da, "Sittai Zaruriya" qasidalarining struktural va tematik yaxlitligi hali yetarlicha o'rganilmagan. Hozirgi tadqiqotlarning aksariyati bu qasidalarni individual ravishda tahlil qilib, ularning umumiy metafizik va ontologik asoslari bilan bog'liqligini chetda qoldirmoqda. Shu sababli, ushbu qasidalarni boshqa islomiy adabiyot va falsafiy an'analardan bilan o'zaro bog'liq holda chuqurroq o'rganish zarurati mavjud.

Nazariy nuqtayi nazardan, kelgusida "Sittai zaruriya" qasidalarini boshqa forsiy tasavvufiy shoirlarning shu kabi mavzularga oid asarlari bilan qiyosiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy adabiy nazariya, xususan, hermenevtika va semiotika yondashuvlari asosida Navoiyning poetik metodologiyasini o'rganish istiqbolli yo'nalishlardan biridir. Shuningdek, olti zaruriy unsur (sittai zaruriya) tushunchasining islom kosmologiyasi va tasavvuf ta'limotidagi o'rni, hamda ushbu qasidalar tarkibidagi numerologik ramzlar bo'yicha chuqurroq izlanishlar olib borish talab etiladi. Bu kabi tadqiqotlar Navoiyning poetik kompozitsiyalarini qanday struktural jihatdan qurganini yanada aniqroq tushunish imkonini beradi.

Amaliy jihatdan esa, "Sittai zaruriya"ning muqobil qo'lyozmalaridan foydalanib, ularning aniq ilmiy nashrlarini yaratish bo'yicha ko'proq filologik ishlar amalga oshirilishi kerak. Turli xalqaro arxivlardagi qo'lyozmalar asosida yaratilgan faksimile nashrlar, batafsil

sharhlar va lingvistik tahlillar Navoiyning ijodini ilmiy tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, adabiy tanqid, tarixiy tadqiqot va tibbiyot tarixi kabi multidisiplinar yondashuvlarni qo'llash orqali Navoiyning poetik ijodi va uning davridagi ilmiy tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni kengroq yoritish maqsadga muvofiqdir

“Sittai Zaruriya”ning falsafiy va struktural jihatlariga oid muhim ilmiy ma'lumotlar o'rganilgan bo'lsa-da, hali ham bu sohada to'ldirilishi zarur bo'lgan ilmiy bo'shliqlar mavjud. Navoiyning intellektual merosini to'liq tushunish uchun nazariy jihatdan chuqur tahlillar va amaliy matnshunoslik tadqiqotlarini o'z ichiga olgan yaxlit yondashuv talab etiladi. Kelgusidagi tadqiqotlar Navoiyning tasavvufiy va adabiy merosini islom intellektual tarixi kontekstida kengroq yoritishga, shuningdek, uning yutuqlarini mintaqaviy va lingvistik chegaralardan tashqariga olib chiqishga xizmat qilishi lozim.

Xulosa

Ushbu tadqiqot Alisher Navoiyning “Sittai zaruriya” qasidalarini bilan bog'liq bo'lgan tasavvufiy metafizika, islomiy kosmologiya va o'rta asr tibbiyotiga oid munozaralarni o'rganib, ularni ma'naviy, falsafiy va ilmiy tafakkurning sintezi sifatida aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Navoiy ilohiy donishmandlik, inson aqli va tabiat tartibi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash uchun struktural jihatdan olti qismli tizimdan foydalangan hamda islom intellektual an'analarga keng tayanib ish olib borgan. Uning she'riyati shunchaki badiiy ifodadan ortiq bo'lib, ilohiyot, tasavvuf va tibbiyot nazariyalarini birlashtiruvchi kontseptual va epistemologik izohlarga aylanadi. Ushbu natijalarning ilmiy ahamiyatiga ko'ra, “Sittai zaruriya” qasidalarini alohida o'rganish emas, balki fors va islom olamining adabiyot va falsafaga ta'sir ko'rsatgan keng intellektual harakatlarining bir qismi sifatida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shunga qaramay, ushbu qasidalarining struktural va tematik yaxlitligi, ayniqsa, ularning avvalgi fors va arab tasavvufiy adabiyoti bilan bog'liqligi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shu sababli, kelgusidagi tadqiqotlar “Sittai zaruriya”ning qiyosiy adabiy tahlili, qo'lyozmalar tadqiqi va tarixiy, falsafiy hamda lingvistik nuqtayi nazarni o'z ichiga olgan multidisiplinar yondashuvlar asosida olib borilishi zarur. Xususan, Sittai zaruriya – ya'ni olti zaruriy unsur tushunchasining son va ramziy mazmuni tahlil qilinsa, Navoiyning intellektual tizimi yanada chuqurroq anglash mumkin bo'ladi. Bu kabi yondashuvlar Sittai Zaruriyani shunchaki she'riy to'plam sifatida emas, balki islom intellektual merosining ajralmas qismi sifatida ko'rish imkonini beradi. Shu tariqa, Navoiyning shoir-faylasuf sifatidagi o'rni va uning falsafiy tafakkurining bugungi adabiy va falsafiy bahslardagi dolzarbligi yanada kengroq ochib beriladi.

ADABIYOTLAR

- Ataniyazova, M. (2021), *Mumtoz Adabiyot Istilohlari Qisqacha Izohli Lug'ati*. Izvlecheno 10 Mart 2025, https://www.researchgate.net/profile/Muborak-Ataniyazova/publication/363331205_Mumtoz_adabiyot_istilohlari_qisqacha_izohli_lugati/links/6318091bacd814437f0bb081/Mumtoz-adabiyot-istilohlari-qisqacha-izohli-lug-ati.pdf
- Jorayevna, B. N. & Mahliyo, I. (2025), ““Sittai Zaruriya” Nashrlaridagi Matniy Tafovutlar va Ularning Badiiyatga Ta'siri”, *Yangi O'zbekiston, Yangi Tadqiqotlar Jurnali*, 2(3): 230–237.
- Ibroimova, Mahliyo (2024), Alisher Navoiy Forsiy Qasidalarida Daqiq Manolar Tasviri. *Shokh Library*, 407–413.
- Melikova, M. (2020), "Towards a philosophical analysis of Alisher Navoi's heritage", *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems*, 12(6): 1112–1116, <https://doi.org/10.5373/JARDCS/V12I6/S20201141>
- Navoiy, A. (2003), *Mukammal asarlar to'plami*, 20-tom, Toshkent: "Fan".
- Komilov, Najmiddin (2005), *Hizr chashmasi*, Toshkent: "Ma'naviyat".

- Sayfulloh, Sayfiddin (2008), *Sittai zaruriya (Olti zaruriy qasida)*, Toshkent: "Fan".
- Sobirov, B. (2024), "Alisher Navoiyning O‘zbek va Fors Tilida Yaratgan She’riy Merosi", *Journal of Arts and Humanities*, 7(1): 1–7.

